

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI SAMARALI O'QITISH

**Zamira Hafizova Xursandovna**

*Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani MMTBga qarashli 59-maktabning boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi*

**Salomat Chorshanbiyeva Abdusamatovna**

*Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani MMTBga qarashli 59-maktabning boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi*

**Bog'dagul Xudoynazarova Ziyadullayevna**

*Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani MMTBga qarashli 59-maktabning boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuv asosida darslarni samarali o'qitish, boshlang'ich sinf darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish usullari va metodlarining juda muhim boyligi, kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinflarda darslarni pedagogik mexanizmlarni tashkil qilish, boshqarish, sifat va samaradorligini doimiy takomillashtirish haqida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik mexanizm, kompetentlik.

**Kirish:** Kommunikativ axborot tizimining kun sayin ortib, ma'lumotlarning jadallik bilan oshib borayotgani, ulardan ta'lim-tarbiya vaqtida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, o'sib kelayotgan avlodni hayotga har taraflama mukammal tayyorlash talab-ehtiyojlari, ayni vaqtda, jamiyatni ijtimoiy takomillashtirishning ilmiy asoslangan, istiqbolli rejasini ishlab chiqish, uning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish o'quv tizimiga yuqori pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilishni taqozo qiladi. Mamalakatimizning taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o'rinn olishi uchun aholi ta'limini

rivojlantirish va uning samaradorligini jadallashtirish maqsadi ham ilg‘or pedagogik tadbirlardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** "Kompetentlik" tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan vaqtarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil shakllanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Boshlang‘ich sinflarda darslarni kompetensiyaviy yondashuv yordamida o‘qitish mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish borasida integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, asosiy ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o‘z faoliyatida foydalana olishni taqozo etadi.

**Natijalar:** Boshlang‘ich sinflarda darslarda kompetensiyaviy yondashuv yordamida o‘qitish usullari va metodlarining juda asosiy boyligi jamlangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o‘qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar nazarga tutiladi. Darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida metod va usullarni tanlash o‘qituvchi darsda hal qilinishi belgilangan masalaga bog‘liq bo‘ladi. Binobarin, yangi materialni bayon qilishda bir xil metodlar foydalanilsa, uni mustahkamlashda va mohiyatini umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo‘llaniladi. Zотан, har bir o‘qitishning ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo‘lsa, ularni qo‘llashdan ko‘zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta’limiy ishlarini faollashtirishdir. Boshlang‘ich ta’lim tizimini modernizatsiyalashda axborot texnologiyalari yutuqlarini keng joriy qilish ham asosiy omil hisoblanadi. Bunda ta’lim sifati ortadi. Axborot texnologiyalari yutuqlari ayni vaqtda o‘quvchilarni zamonaviy madaniyatga oshno qilish sifati bo‘lib xizmat qiladi, axborotlashgan jamiyat sharoitida bu alohida jiddiy dolzarblik kasb qiladi.

**Muhokama:** Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinflarda fanlarni o‘qitishda pedagogik mexanizmlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini

doimiy takomillashtirishda o‘qituvchilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlar va ularni tashkil qilish va boshqarish yo‘nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko‘nikma va malakalari darajasiga, shuningdek ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlari, shuningdek, qobiliyatları, mahorati va kasbiy tajribasiga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda darslarni samarali o‘qitishda mavzular mohiyatini yoritishda animatsiyalardan foydalanish va kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitishning keng imkoniyatlari orqali boshlang‘ich o‘quvchilarda ijodkorlik, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini takomillashtirish, garmonik rivojlanishi, fantaziyasini boyitish, badiiy did va estetik mahoratni rivojlanishi, diqqat va tasavvurni aktivlashtirish, rang tasvir uyg‘unligini anglash, ajratish kabi jarayonlarni shakllantirishga erishish mumkin.

**Xulosa:** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda darslarni samarali o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda quyidagi afzalliklarga ega bo‘ladi: ta’lim jarayonining doirasi kengayadi, uning amaliy yo‘nalishini qo‘llab-quvvatlaydi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishdagi motivatsiyasini oshiradi, shaxsni muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoit yaratadi, fanga bog‘liqlikni takomillashtiradi va kuchaytiradi, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, ularning mustaqilligini shakllantiradi, mavzu bo‘yicha bilim sifatini oshiradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yusupova F. I. O‘quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” jurnali. 2005.
2. Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P «BoshLang‘ich sinfiarda tabiiy materiallardan amaliy ishlar» o‘quv-metodik qo’llanma 2009.
3. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003.
4. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Sariyev Sh. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarda qiziqishlarni o‘rganish. T., TDPU. 2008.